

OILADA FARZAND TARBIYASI –UNI MUSTAHKAMLOVCHI OMIL

Турабоева Феруза Кушмат қизи

Ижтимоий иш йўналиши талабаси

Фарғона давлат университети

Annotatsiya: *Oila o'zaro hurmat, burch, ezgulik, mehr-oqibat, vijdon qonunlari asosida qurilganda — sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit yuzaga keladi va o'zining ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, ya'ni demokratik negizlarga asos solinadi, ularning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Zero, oila ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish - ijtimoiy jarayonlar, insonning tafakkuri, ma'naviyati, aqliy rivoji va tarbiyasiga, bir so'z bilan aytganda, shaxs sifatida shakllanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladigan barcha shart-sharoitlar, holatlar orqali amalga oshiriladi. Shaxs bilan muntazam aloqada bo'lgan muhitlar (oila, maktab, maktab jamoasi, do'stlar va tanishlar davrasi) bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs ma'naviyati shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib, jamiyatni sog'lomlashtirish, unda sog'lom ijtimoiy muhitni qaror topshirish hamda yosh avlodni barkamol yetib, komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *oila, tarbiya, ruhiyat, hurmat, shakllanish, tafakkur*

Mustaqillik tamoyillari va ahloqiy me'yorlar asosida rivojlanib borayotgan oilalarning eng muhim vazifalaridan - sog'lom turmush tarzi va ahloqiy munosabat madaniyatini oila a'zolari o'rtasida ochiq ko'ngillik, xushfe'llik, rostgo'ylik, muruvvat, oriyat, pok-halollik, iboyu - latofat, iffatu - nazokat, kamtarlik, bosiqlik kabi hislatlarni kundalik ahloq me'yoriga aylantirish lozim. Buning uchun aql va idrokni ishga solish kerak. Chunki, aql va idrok insonning piri-komili, murshididir! «Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir», - deydi dono xalqimiz. Uni ahloqiy burch, ijtimoiy majburiyat, ichki e'tiqodga aylantirsak — fazilatlar hayot qoidasi, faoliyati va munosabatlar mezonini bo'lib xizmat qiladi. Chunki burchni anglash, vijdonni pok tutish, oriyatga amal qilish, qadr-qimmat, insonparvarlik, hushmuomalalik, mehnat, kasb-hunarga hurmat, oila sha'ni-obro'sini saqlash kabi his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Ahloqiy asoslarga amal qilgan har bir inson — oilada, mahalla va jamoatchilik orasida ezgulik va yaxshilikni ulug' ish deb anglab, o'z hayoti, turmush tarzi va munosabati, hatti-harakatlarining haqiqiy va adolat o'lchovi, o'zagi ahloq va odob ekanligini anglaydi.

Oilaviy muhitda yosh avlod tarbiyasini amalga oshirish jarayonida ota-ona o'z farzandlarida ushbu illatlarning kurtak ochishining oldini olishga harakat qilishlari kerak. Bunda ota-onalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, oila muhitida tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga ko'maklashish farzandlari ta'lim olayotgan maktab muallimlari zimmasiga tushadi. Yoshlarni tadbirkorlik, uddaburonlik, ishning ko'zini bilib harakat qilish,

bunyodkorlik, yangilik yaratish, mehnat faoliyatini amalga oshirish va turli o'yinlarni tashkil qilishda asbob-uskunalarni modernizatsiyalash bugunning talabi bo'lib qolmoqda.

Oilada turli turmush qiyinchiliklarini vaqtincha holat deb, ularni bartaraf etish, kelajakka ishonch tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda, odamlar orasida oliyanob munosabatlarning qaror topishiga, ijtimoiy adolatga, oila, ota-ona, do'stlik-birodarlik muqaddasligiga ishonch har bir kishi ruhiyatining tayanch ustunlaridir. Oilada har bir shaxs ehtiyojlarining to'la qondirilishi, albatta ma'naviy-psixologik vaziyatni normallashtirishning asosiy shartidir. Lekin, ehtiyojlarni qondirishga intilish turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni bartaraf qilish bilan bog'liq. Bu borada ma'naviy merosimizda bag'rikenglik, taraqqiyparvarlikka moyillik ko'nikmalarini shakllantirish muammolariga alohida urg'u berish zarur deb o'ylaymiz. Mutafakkir A.Avloniy ta'biricha: "Keksalik san'ati yoshlarga to'g'anoq emas - suyanchiq, raqib amas - muallim, befarq emas — hamdard bo'lish demakdir". Ushbu san'atga ega bo'lish — donolik, donishmandlik alomatidir. Shuni unutmash kerakki, ko'p hollarda oilalarda vujudga kelayotgan ba'zi qarama-qarshiliklarni oqilona hal qilmaslik - yosh oilalarning buzilishiga, yigit-qizlarning turli nopok yo'llarga kirib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu vaziyat o'z navbatida jamiyat ma'naviyatiga, oila muhiti madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayo do'stlar, nodon birla ulfat bo'lib,
Bag'rim kuyub, jondin to'yib o'ldim mano.
To'g'ri aytsam, egri yo'lga bo'yin to'lg'ar,
Qonlar yutib ham zahriga to'ydim mano[1, B.336].

O'z taqdiriga, qolaversa oila, millat taqdiriga javobgarlik hissiga ega kishi avvalambor, o'zligini anglagan, men'i qadrini biladigan, insoniy fazilatlar sohibidir. Bunday inson, tabiiyki, yuksak tafakkur madaniyatiga, quvvatiga ega bo'lishi kerak.

Oilada, ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh urug'lar orasida bola ilk tasavvurlarni ulardan oladi va uni o'rab turgan insonlar bilan ijtimoiy munosabatda bo'ladi. Shunday ekan, tarbiyaning asosiy o'zagiga oiladayoq poydevor qo'yiladi va bu tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta'lim-tarbiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxs mikromuhitga faol ta'sir ko'rsatadi, shaxsning mikromuhitga ta'siri darajasi uning ijtimoiy quvvati — aql-zakovati, ehtirosi va irodasi bilan belgilanadi. Jumladan, oilada bolani ertak, maqol, qo'shiq, afsona, topishmoq, latifalar, ya'ni uyqu oldidan uyushtirilgan nasihatlar. rag'batlantirish, maqtov, namuna ko'rsatish, taqiqlash, majbur etish usullari orqali tarbiyalash — ularning hulq-atvori, hatti-harakati, ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida fikr bildirish talab qilinadi. Demak, bu yo'l bilan bolalarda adolat, to'g'rilik, yaxshilikning doimo yovuzlik, nopoklik ustidan g'alaba qozonishi xususidagi tushunchalarning shakllanishiga olib keladi, ya'ni yaxshi fazilat va yomon hislatlarni bilib olishadi, hurmat va muruvvat, adolat, do'stlik kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Natijada butun hayotlari davomida bu o'g'itlar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qiladi.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomala madaniyatiga rioya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanishi lozim. Bolalarga otani hurmat qilishi, unga mehribon bo'lishni o'rgatish - otaning vazifasi va onaning namunasi sanaladi. Demak, manfaatlari umumiy, bo'lgan ahil oilada yaxshi odat, an'analar vujudga keladi, sog'lom muhit, mehr-oqibat, qadr-qimmat zamini yaratiladi. Bolalarning yaxshi tarbiya topishlari uchun real va tegishli sharoit vujudga keladi. Ya'ni, er-xotin o'rtasidagi yuksak munosabat madaniyati bolalarning quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, to'g'ri tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhitning yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, qaysi oilada noahillik, qo'pollik, do'q-po'pisa, asabiylik hukmron ekan, unda huzur-halovat bo'lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal ham, dastavval bolalarning ruhiy holatiga ta'sir qiladi, ularda yomon odatlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Bolalar ulg'aygach ular ham «qush uyasida ko'rganini qiladi» qabilida ish ko'rishadi. Shu bois oilada sog'lom muhitni saqlash uchun ota-ona bir-biriga nisbatan hurmat-ehtirom doirasidan chiqib ketmasliklari, obro'larini tushirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo'q vaqtida bartaraf etishlari lozim.

Oiladagi sog'lom muhiti doimiy ravishda saqlab turish uchun er-xotin baravar mas'uldir. Agar ulardan biri mehribonrok, xushtavozeroq bo'lsa, u ikkinchisiga namuna ko'rsatadi. Darhaqiqat, bola yomon yoki yaxshi hulqli, fe'l-atvorli bo'lib tug'ilmaydi. Uning ijtimoiylashuvi jarayonida oila muhiti, ota-onaning, qarindoshlarning, atrof-muhitdagi kishilar munosabatlarining ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qayerda oila, oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham kuchli va muazzam bo'ladi. Abdurauf Fitratning «Rahbari najot» asarining «Bola tarbiyasi» masalalari bobida oila doirasida bola tarbiyasi muammolariga qaratilgan shunday fikrni uchratamiz: «Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, dunyo kurashning umumiy maydoniga o'xshaydi va bu maydonning pahlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga yetgach, u o'z saodatini ta'minlash uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo'qdir. Bu kurashda g'olib chiqish uchun uch xil o'lchov quroli (sallohi masih)

1. Salomatlik;
2. Sog'lom fikr;
3. Ahloqi sanoga ega bo'lish kerak»[2, B.83].

Haqiqatan ham har bir ota-ona o'z farzandining hayotda qoqilmay munosib o'ringa ega bo'lishini xoxlasa, uning kamoli uchun bu uch tarbiyani uyg'un holatda olib bormog'i lozim, deb o'ylaymiz.

Oila jamiyat bilan bola o'rtasidagi oddiy vositachi bo'lib, o'zi kamol toptirayotgan shaxsning hulq-atvorini hamma vaqt uchun belgilaydi. Oiladagi yomon ruhiy va ijtimoiy muhit bolalarda salbiy hulq-atvor paydo bo'lishining jiddiy sabablaridan biridir. I.A.Karimovning, «Har qaysi inson Alloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati,

manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini xatto tasavvur ham qilish oson emas»[3, B.173], - degan so'zlari oiladagi sog'lom turmush tarzining naqadar muhim ekanligini yana bir karra isbot etadi.

Xulosa qilib aytganda, oila o'zaro hurmat, burch, ezgulik, mehr-oqibat, vijdon qonunlari asosida qurilganda — sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit yuzaga keladi va o'zining ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, ya'ni demokratik negizlarga asos solinadi, ularning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Zero, oila ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish - ijtimoiy jarayonlar, insonning tafakkuri, ma'naviyati, aqliy rivoji va tarbiyasiga, bir so'z bilan aytganda, shaxs sifatida shakllanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladigan barcha shart-sharoitlar, holatlar orqali amalga oshiriladi. Shaxs bilan muntazam aloqada bo'lgan muhitlar (oilalar, maktab, maktab jamoasi, do'stlar va tanishlar davrasi) bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs ma'naviyati shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib, jamiyatni sog'lomlashtirish, unda sog'lom ijtimoiy muhitni qaror topshirish hamda yosh avlodni barkamol yetib, komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Oilaviy turmush sohasida jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik faoliyatni takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

1) profilaktika jarayoniga psixologlar va boshqa sohalardagi mutaxassislarni keng jalb etish, bu hol ularning shaxsiy hayotiga, oilaviy munosabatlari sohasiga aralashishi zarurligi bilan bog'liq;

2) amaliyotda oilada ehtimol sodir bo'ladigan jinoyatlarning oldini iloji boricha ertaroq olishga ko'proq e'tibor qaratish. nazarda tutiladi.

Shu sababdan oilaning buzilishi, xonadondagi bezovtaliklar, otaning onaga bepisand. dag'al muomalasini qizaloq juda yomon qabul qiladi, hatto ba'zan fojiviy oqibatlar ham ro'y berishi mumkin. Ota yoki onadan nuqsonli bo'lgan oilada moddiy ahvol barkamol oilaga nisbatan hamisha og'irroqdir. Bunday xonadonlarda moddiy qiyinchilik, voyaga yetmagan qizlar orasida hasad, hasislik, ayyorlik, xudbinlik kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Qiz bola ruhiy jihatdan yangi oiladagi shaxslar bilan munosabatga kirishishi qiyin kechadi. Tadqiqotchi O.Veynengerning ta'kidlashicha, qiz bola o'g'il boladan farqli o'laroq ona mehriga o'ta ehtiyojmand bo'ladi. Shuning uchun yangi oilada kelin birdan ko'nikib ketolmaydi. Bunday sharoitlarda kelinlar ko'pincha qaynonalariga qarshi borib, o'z istaklarini amalga oshirishga intilishadi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Корхоналар корпоратив бошқарувининг баҳолаш усулларини таҳлил қилиш. Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали, 5.

2. Ханкелдиева, Г. Ш. (2018). Глобаллашув шароитида электроэнергетика тармоғида стратегик бошқарув усулларидан самарали фойдаланиш. Иқтисодиёт ва таълим, 5, 357-363.

3. Хонкелдиева, Г. Ш. (2018). Развитие промышленных предприятий в Республики Узбекистан. Т.: Иқтисодиёт ва таълим.

4. Ханкелдиева, Г. Ш. (2020). Пути эффективного развития инновационной деятельности производственных предприятий республики узбекистан. In Наука сегодня: теория и практика (pp. 29-32).

5. Хамракулов, И. Б. (2023). ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 398-402.

6. Хамрақулов, И. Б. (2023). ЖАҲОНДА «ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ» НИНГ ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 2361-2366.

7. Хамракулов, И. Б. (2023). НЕОБХОДИМОСТЬ И ВАЖНОСТЬ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 1142-1146.

8. Bakhtiyorovich, K. I. (2023). DEVELOPMENT OF MONITORING INSTRUMENTS OF EFFICIENCY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1994-1999.

9. Хамрақулов, И. Б. (2022). Кичик саноат зоналарини ривожлантиришнинг моҳияти ва ўзига хос хусусиятлари. Scientific progress, 3(1), 328-334.

10. Хамрақулов, И. Б. (2021). Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг назарий асослари. Scientific progress, 2(7), 586-592.

11. Хамрақулов, И. Б. (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИАТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 140-146.

12. Ханкельдиев, Ш. Х., & Саидахматов, А. В. (2021). Инновационные подходы к повышению уровня специальной физической подготовленности юных таэквондистов. Наука сегодня: история и современность [Текст]: материалы, 40.

13. Ханкельдиев, Ш. Х., & Султанова, Н. Я. (2021). Физическое развитие учащихся девушек среднего школьного возраста общеобразовательных школ. In НАУКА СЕГОДНЯ: ЗАДАЧИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ (pp. 74-75).

14. Зокирова, С. Х., Хамракулов, Ж. Б., & Кадирова, Н. Б. (2020). Полевая влагоемкость, влажность почв и песков Центральный Ферганы. Universum: химия и биология, (5 (71)), 5-9.

15. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. The American journal of interdisciplinary innovations and research, 3(01), 113-117.

16. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 36-39.

17. Бахтиёрович, Ҳ. Ж. (2022, August). ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ. In E Conference Zone (pp. 13-16).

18. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 34-35).

19. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.

20. Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ (pp. 59-61).

21. Хамракулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 49-51).

22. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 233-237